JARIMA MAYDONIGA OLIB KIRILGAN “MALIBU” AUKTSIONDA SOTILDI

Byuroning Quvasoy shahar bo’limi ish yurituvida bo’lgan FIB Farg’ona tumanlararo sudining 16.12.2021 yildagi qarzdor «ARSIFTEXNOPLAST” MChJdan undiruvchi “Mikrokreditbank” Farg’ona foydasiga jami 155.529.011 so’m qarz undirish, undiruvni qo’shimcha javobgar Quvasoy shahrida yashovchi A.G’.ga tegishli bo’lgan “MALIBU” rusumli avtomashinaga qaratish haqidagi ijro hujjati yuzasidan qarzdorga sud qarorini ijrosini ta'minlash yuzasidan ixtiyoriy muddat berilgan

Lekin, qarzdor ixtiyoriy muddat ichida bank oldidagi qarzini bartaraf etmagani bois, 06.02.2023 yilda “MALIBU” rusumli avtomashina aniqlanib, jarima maydoniga olib kirilgan va 110.500.000 so’mga baholanib, auktsion savdoga qo’yilgan edi

Auktsion savdolarda 07.04.2023 yil kuni “MALIBU” avtomashinasi 156.720.000 so’mga sotilgan va kelib tushgan summa qarzdorlikni qoplash uchun yo’naltirilib, ijro hujjati tamomlandi

MIB Quvasoy shahar bo’limi

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating
Facebook,
2023-04-14 20:23:03